




**JAHON XALQLARI
ERTAKLARI**

HIND XALQ ERTAKLARI



**ŞEHRILI
UZUQ**

1-kitob

Ikkinchi nashri

Toshkent — «O'zbekiston» — 2018

UO'K: 398.21 (540)

KBK 82.3 (5Hind)

S 18

Rus tilidan Ahmadjon YOQUBOV tarjiması

Nashrga tayyorlovchi Gulyuz AHMEDOVA

Sehrii uzuk: hind xalq ertaklari/rus tilidan A. Yoqubov
S 18 tarjiması. — Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018. — 280 b.

ISBN 978-9943-28-075-5

Hind xalqining ajoyib voqealarga, turfa sarguzashtlarga boy ertaklari bolalarning jon-u dill. Chunki Hindistonning betakror tabiati har bir insonni o'ziga maftun etishi tabiiy. Ana shunday betakror tabiat olamida ertak qahramonlari bilan birga bo'lish, ularning ezgu orzu umidlarini his etish, yovuzlik ustidan ular bilan birga g'alaba qozonish ertaksevar bolalarni doimo o'ziga chorlaydi. Zero, ertaklar bolalarga doimo quvonch bag'ishlaydi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, ezgulikka oshno qiladi.

Qo'lingizdagi kitobda qahramonlik, do'stlik, sadoqat, mehr-oqibat va boshqa go'zal insoniy xislatlar haqidagi ertaklar jamlangan. Bu ertaklar siz aziz kitobxonlarga ham manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 398.21 (540)

KBK 82.3 (5Hind)

ISBN 978-9943-28-075-5

© A.Yoqubov (tarj.), 2015, 2018

© «O'zbekiston» NMIU, 2015, 2018

MURCH DONA

Bor ekan, yo'q ekan, Andxra mamlakatining qishloqlaridan birida kambag'al bir kampir yashagan ekan. Uning ikki nafar o'g'li bor ekan. Ular har kuni ertalab o'rmonga ov qilgani ketib, kechqurun qaytishar ekan. Ov go'shtini qo'shnilariga sotishib; tuz, qalampir, gurunch, non uchun tariq uni olishar va onalariga keltirib berishar ekan. Onalari non yopar, gurunch qaynatar va o'g'illarini boqar ekan, o'zlarini ham esdan chiqarmas ekan. Kunlardan bir kun o'g'illari ertalab o'rmonga ovga ketishibdi-yu, lekin kechqurun qaytib kelishmabdi. Qorong'i tushibdi, osmonda yulduzlar miltillabdi, biroq ulardan hamon darak yo'q emish. Kampirni vahima bosibdi: «O'g'illarim qayoqda qoldi ekan? Men endi qandoq qilaman? Na ichgani, na yegani narsa bor, uyda bir hovuch ham don yo'q». Vahima hamda ochlikdan kampir ertalabgacha ko'z yumabdi. Sahar paytida uning hujrasini qishloqma-qishloq yurib qo'shiq aytadigan va kishilarning kelajagidan xabar beradigan daydi afsungardan biri qoqibdi. Kampir o'z boshiga tushgan kulfatni unga hikoya qilib beribdi.

– Ishing chatoq, onajon, – debdi afsungar, – o'g'illaringni o'rmon to'ng'izi yutib yuboribdi, hozir ular uning qornida, yorug' dunyoga chiqolmay turishibdi. Biroq shunday bo'lsa-da, g'amingni yengillashtirishga yordam beraman. Manavi oltita murch donasini olib, ko'zachaga sol, ko'zachani ostonaga qo'yib, yoniga o'zing ham o'tir. Olti soat o'tgandan keyin ovozingni balandroq qilib: «Hoy Murch Dona!» deb chaqirgin. Ko'zacha ichidan kichkina bir bola sakrab chiqadi. Nima buyursang hammasini bajo keltiradi. Faqat sen shu bolani o'z o'g'illaringday tarbiya qilishga so'z ber.

Kampir xursand bo'lib, minnatdorchilik bildirib boshlabdi:

– Voy, aylanay sendan, otaxon, rahmat! Sening har bir so'zing dardimga malham! Aytganlaringning hammasini qilaman, xudo martabangni ulug' qilsin.

So'ngra ko'zachani keltirib, ostonaga qo'yibdi, ichiga murch donasini tashlabdi, o'zi uning yonida kutib o'tiraveribdi. Afsungar ko'zachaga engashib, bir nimalarni pichirlabdi-da, yo'liga ravona bo'libdi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin ko'zachadan bo'yi o'sha ko'zachadek keladigan kichkina, murch donasiday qop-qora bola chiqibdi va kampirga ta'zim qilib debdi:

– Men keldim, onajon! Xizmat?!

– O'rmonga borib akalaringni qutqarib kel.

Mitti Murch Dona akalari ovga olib boradigan o'tkir nayzani ko'tarib jo'nab ketibdi. O'rmondan to'ng'iz uyasini axtarib topibdi, qarasa to'ng'iz pishillab uxlab yotgan emish, qorni esa shishib ketgan emish. Murch



Dona yugurib kelib nayzani to'ng'izning qorniga suqib olibdi. Shu zahoti kampirning o'g'illari qutulib chiqibdilar va ukalariga rahmat aytishibdi.

Uchchovlon kampirning oldiga qaytishibdi. Birgalikda yashay boshlabdilar. Akalari ilgangidek ov qila boshlashibdi, kampir dalada ishlarkan: goh yer haydarkan, goh ekin ekarkan, goh hosil yig'ishtirarkan.

Bora-bora ular boy bo'lib ketishibdi, eski hujra o'rniga yangi uy solishibdi, qishloq oqsoqolidan unumdorgina yerni ijaraga olishibdi, sigir, qo'tos xarid qilishibdi. Oy va yillar o'tibdi. Murch Dona o'sib, pahlavon yigit bo'lib yetishibdi. Lekin u onasi, akalariga qanchalik yordam qilmasin ularni minnatdor qilolmabdi. U aqlli, g'ayratli, odobli bo'lsa ham kampir uni yoqtirmas ekan. U o'g'illarini uylantirmoqchi bo'libdi, lekin kenja o'g'ilning boshini ikkita qilishni xayoliga ham keltirmabdi. Keyin «Odamlar gap-so'z qilishmasin», deb andisha qilibdi va uchchoviga ham baravar to'y qilibdi. Uyga uchta kelin bilan birga xafalik va malomat ham kirib kelibdi. Salgina g'idi-bidi ham dilxiralikka aylanib, uyda janjallar bo'la boshlabdi.

Kampir o'z tirikchiligini o'zi qilsin deb o'g'illarini bir-biridan ajratib tashlabdi. Lekin narsalar baravar taqsimlanmabdi. Katta o'g'illari bittadan dang'illama uyga kirib olishibdi. Murch Donaga esa kichkina hujra qolibdi. Kampir to'ng'ich o'g'illariga ho'kiz, sigir, qo'yechkilarni beribdi, kichkinasiga esa atigi qari bir qo'tos tegibdi.



Murch Dona xafa bo'libdi, ammo xatachiligi uzoqqa cho'zilmabdi. Xotinini qo'shni qishloqqa — otasinikiga jo'natibdi-da, qo'tosni qassobga sotib, karkidonning terisidan yasalgan kichkina do'mbirani va ikkita nonni olib, baxt izlab safarga chiqibdi. Murch Dona shahar-ma-shahar, qishloqma-qishloq yurib do'mbira chalib, qo'shiqlar ayta boshlabdi. Kishilarga uning qo'shiqlari yoqar ekan, shuning uchun unga non-choy berishibdi, tunagani uylaridan joy ko'rsatishibdi.

Bir kuni u bir qishloqdan boshqasiga borayotgan ekan. Yo'l o'rmon ichidan o'tarkan. Vaqt ancha kech bo'lib qolibdi. Kech kirib, qorong'i tushibdi, osmonda na yulduz, na oy — hech nima ko'rinmas emish. Murch Dona qo'rqibdi: «Nima qilishim kerak? Shu ketishda yo'ldan chiqib, o'rmonda adashib qolish ham mumkin. Shu o'rtadan birorta tunaydigan joy topib olib, ertalab-gacha o'tiraman, so'ngra yo'lda davom etaveraman».

Yo'ldan chetroqdagi katta, sershox banan daraxtiga ko'zi tushibdi. Murch Dona o'ylab o'turmay daraxt tepasiga chiqibdi, yo'g'ongina butoq ustiga barglardan to'shab joy qilibdi, unga kirib olib do'mbirasini boshiga yostiq qilib qo'yibdi. Murch Dona kunduzi juda charchaganligidan darhol uyquga ketibdi.

U uyqusida bejo qimirlabdi yo qattiqroq shamol esganmikan, boshidagi do'mbira birdan daranglaganicha yerga tushib ketibdi. Pastda — daraxt tagida olag'ovur, qiy-chuv, shovqin ko'tarilibdi: «Ay-yo, shayton kelyapti! Ay-yo, ajinal Qochaveringlar!» Baqiriq va chaqiriq ovozlaridan Murch Dona uyg'onib ketibdi;



butoqda o'tiribdi-yu, nima bo'layotganiga hech aqli yetmabdi. So'ngra sekin pastga qarabdi. Qarasa, pastda g'alati narsalar bor emish, gulxan yonib turgan emish, atrofida palma bargidan yasalgan tovoqchalarda guruchli ovqatlar, baliq, mango, yangi uzilgan tamarindalar. Odamlar esa ko'rinmas emish, hammasi o'rmonga qochib ketishgan ekan. Murch Donaning qorni g'o'ldirab ketibdi, chunki u juda ochiqqan ekan. Daraxtdan sakrab tushib, bargdan yasalgan tovoqchani qo'lga olibdi va og'izini to'ldirib guruch, baliq, mangolarni birin-ketin tushira boshlabdi. Qorni to'ygach, atrofga qarabdi. Daraxt tagida do'mbirasi, nariroqda qandaydir tugunlar va bitta kichkina quticha yotgan emish.

Murch Dona do'mbirasi bilan qutichani olib yana daraxtga chiqib ketibdi. O'zi yotgan butoqqa yaxshigina o'rnashib olib, nima bo'larkin deb kutib o'tiraveribdi.

Ko'p o'tmasdan ikki chol kelib gulxanga o'tin tashlashibdi va atrofga sinchiklab qaray boshlashibdi. Birdan bitta tovoqchadagi ovqat bilan quticha yo'qligini bilib qolishibdi-da, bir-biriga shivirlashib, yana o'rmon ichiga kirib ketishibdi. Yarim soatlardan keyin chollar yigirmata odam bilan qaytib kelibdi. Murch Dona ularni ko'rib, qaroqchilar qo'lga tushib qolganligini sezibdi. Yaproqlar orasiga yashirinib, quloq sola boshlabdi. Qaroqchilarning boshlig'i shunday debdi:

— Og'aynilar, zo'r falokat yuz beribdi. Bizga ajina emas, o'rmon ma'budasi Moxini xalaqit berdi. Axir, biz uning oldida aybdormiz, har kuni shu daraxt tagida



yashirindik, yedik, ichdik, lekin unga qurt yegan bannani ham ravo ko'rmadik, bir paysa ham qurbonlik qilmadik! Mana, endi u bizga g'azabini sochib, tunov kun o'g'irlashga muvaffaq bo'lganimiz podsho marjonini — eng qimmatbaho boyligimizni olib qo'ydi. Og'aynilar, men qo'rqib qoldim, bundan keyin ma'buda Moxini bizni albatta jazolaydi, go'zal bir qiz qiyofasida ko'rinib, imlab chaqiradi, orqasidan ergashib borsang, noma'lum yoqqa — yo yo'lbars uyasiga, yo ilonlar bijg'ib yotgan botqoqlikka boshlab ketadi. Ehtiyot bo'linglar, unga aldanib qolmanglar tag'in!

Qaroqchilar nihoyatda qo'rqib ketishibdi, tuni bilan gulxan atrofida yonma-yon o'tirib uxlamay chiqishdi. Tong otgandagina tarqab ketishibdi. Murch Dona ham kechasi bilan butoqda o'tirib chiqibdi, qimirlashga ham qo'rqibdi. Qaroqchilar ketgandan keyingina qutichani ochibdi, ko'zi eng qimmatbaho toshlardan yasalgan marjonga tushibdi. Murch Dona qutichani qo'ltig'iga qisganicha, do'mbirasini olib, podsho poytaxtiga qarab jo'nabdi. Podsho saroyini topib, podshoga muhim ishi bor ekanligini qo'riqchilarga aytib, podsho huzuriga qo'yib yuborishlarini iltimos qilibdi.

— Sen juldirvaqiga podsho bilan suhbatlashishni kim qo'yibdi? Yana qanaqa nayranging bor! Mayli, podsho maslahatchisiga aytamiz, shunga ham shukur qil, — deb kulishibdi qo'riqchilar.

Podsho maslahatchisi chiqib:

— Xo'sh, yigitcha, bu yerga nima ish bilan kelding? Gapir, — debdi.





Murch Dona podsho maslahatchisiga qutichani ko'rsatibdi va o'rmonda qaroqchilar bilan uchrashganini hikoya qilib beribdi. Maslahatchi qarasaki, ish chindan ham muhim, u Murch Donani podsho huzuriga olib kiribdi, podsho esa o'sha kunning o'zidayoq o'rmonga bir to'da askar yuboribdi. Sarbozlar ilgari ham bu qaroqchilarni tutishga ko'p uringan, lekin ushlolmagan ekanlar, o'sha kuni qaroqchilarni qiynalmasdan tutib olishibdi. Podsho Murch Donaga juda katta mukofotlar beribdi, uni o'ziga maslahatchi qilib tayinlab, saroyda olib qolibdi. Murch Dona shu kundan boshlab poytaxtni idora qila boshlabdi.

U adolat va aql bilan ish tutganidan dong'i butun mamlakatga yoyilibdi.

Kampir ona ham o'z kenja o'g'lining dovrug'ini eshitibdi. To'ng'ich o'g'illar esa uylarini ham, mollarini ham, boshqa mayda-chuydalarini ham qimorga boy berishib, boshlari oqqan tomonga ketishgan ekan. Kampir yolg'iz qolib, oldingidan ham yomon hayot kechirayotgan ekan.

U asrandi o'g'liga mehribon bo'lmaganiga pushaymon bo'libdi, lekin vaqt o'tgan ekan. Tentak kampir o'z jazosini o'zi tortgan ekan.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4572> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4572> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4572>